

## **INNOVATIVE TECHNOLOGIES and TRAININGS FOR IMPROVING (or rehabilitating) THE SOCIALIZATION PROCESS OF DEVIANT CHILDREN**

Urumbaeva Aygul Nagmetovna  
Candidate of Pedagogical Sciences,  
Associate Professor of NSPI named after Ajiniyaz

### **Abstract**

The article is devoted to the problem of improving the socialization process of deviant children, in which specific innovative technologies and trainings are proposed. In particular, social educators are recommended such technologies as “Forum Theatre,” “Art Pedagogy,” and “Fairy Tale Therapy,” and their content is revealed.

**Keywords:** Deviant children, socialization, process, improvement, innovative technologies, trainings, Forum Theatre, art pedagogy, fairy tale therapy, social educators.

### **Introduction**

#### **DEVIANT BOLALARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONINI SO‘GLOMLASH TIRISH BO‘YICHA INNOVACION TEXNOLOGIYALAR va TRENINGLAR**

Urumbaeva Aygul Nagmetovna  
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI prof. v.b.,  
pedagogika fanlari nomzodi, docent

### **ANNOTACIYA:**

Makolada deviant bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini sog‘lomashtirish bo‘yicha innovacion texnologiyalar va treninglar muammosi tadqiq qilinadi. Jumladan, ijtimoiy pedagoglar uchun «Forum-teatr» (ijtimoiy teatr), «Art-pedagogika» va «Ertakterapiya» texnologiyalari tavsiya etiladi, ularni mazmuni ochib beriladi.



**KALIT SO‘ZLAR:** deviant bolalar, ijtimoiylashuv, jarayon, soʻgʻlomlashtirish, innovacion texnologiyalar, treninglar, Forum-teatr, art-pedagogika, ertakterapiya, ijtimoiy pedagoglar.

**ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ и ТРЕНИНГИ ПО  
ОЗДОРОВЛЕНИЮ ПРОЦЕССА СОЦИАЛИЗАЦИИ  
ДЕВИАНТНЫХ ДЕТЕЙ**

Урumbaева Айгуль Нагметовна

вр.и.о. проф. Нукусского ГПИ имени Ажинияза,  
кандидат педагогических наук, доцент

**АННОТАЦИЯ:** Статья посвящена проблеме оздоровления процесса социализации девиантных детей, в которой предлагаются конкретные инновационные технологии и тренинги. В частности, социальным педагогам рекомендуются технологии «Форум-театр», «Арт-педагогика» и «Сказкотерапия», раскрывается их содержание.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** девиантные дети, социализация, процесс, оздоровление, инновационные технологии, тренинги, Форум-театр, арт-педагогика, сказкотерапия, социальные педагоги.

**INNOVATIVE TECHNOLOGIES and TRAININGS FOR IMPROVING  
(or rehabilitating) THE SOCIALIZATION PROCESS OF DEVIANT  
CHILDREN**

Urumbaeva Aygul Nagmetovna

Candidate of Pedagogical Sciences,  
Associate Professor of NSPI named after Ajiniyaz

**ABSTRACT:**

The article is devoted to the problem of improving the socialization process of deviant children, in which specific innovative technologies and trainings are proposed. In particular, social educators are recommended such technologies as “Forum Theatre,” “Art Pedagogy,” and “Fairy Tale Therapy,” and their content is revealed.

**KEYWORDS:** deviant children, socialization, process, improvement, innovative technologies, trainings, Forum Theatre, art pedagogy, fairy tale therapy, social educators.

### **KIRISH (INTRODUCTION):**

Sir emaski, bugungi shiddatli axborotlashuv va raqamli texnologiyalar asrida bolalar va o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayoni jiddiy, ba'zan esa xavfli transformaciyalarga uchramoqda. An'anaviy ijtimoiylashuv institutlari bo'lmish oila, maktab va mahallaning tasiri bilan bir qatorda, internet tarmoqi, virtual reallik, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat kabi stixiyali (boshqarib bo'lmaydigan) omillarning ta'siri keskin ortib bormoqda [4].

Buning oqibatida yoshlar orasida real ijtimoiy muloqotning yetishmasligi, virtual qaramlik (ludomaniya, kiberbulling), milliy qadriyatlardan uzoqlashish, egocentrizm va turli deviant (xulqi og'ishgan) holatlarning namoyon bo'lishi kuzatilmoqda. Yoshlar virtual olamda o'zlariga soxta ijtimoiy rollarni qabul qilib, real hayotdagi muammolar oldida ojiz qolmoqdalar.

Ushbu murakkab sharoitda ijtimoiylashuvni shunchaki o'z holiga, tabiiy oqimga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Bu jarayon maqsadli, tizimli va ilmiy asoslangan ijtimoiy-pedagogik aralashuvni (intervenciyani) talab qiladi [7]. Maktablarda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy pedagoglar oldida nafaqat davomatni nazorat qilish, balki bolaning jamiyatga moslashuvidagi psixologik va ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etishdek murakkab vazifa turibdi. Aynan shu nuqtai nazardan, ijtimoiylashuvni yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida o'rganish, uning zamonaviy mexanizmlarini tahlil qilish va ta'lim-tarbiya muassasalarida ijtimoiy pedagoglarning faoliyatini takomillashtirish biz olib borgan tadqiqot ishimizning goyat dolzarb va hayotiy zarur ekanligini asoslaydi [2].

### **MUNOZARA (DISCUSSION):**

Ma'lumki, pedagogika nuqtai nazaridan olib qaraganda, innovacion ta'lim — bu o'quvchida nafaqat yangi goya va meyorlarni yaratish, balki o'zgalardan tomonidan yaratilgan ilg'or tajriba va qoidalarni tabiiy ravishda qabul qilish hamda hayotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantiruvchi jarayondir. Aynan mana shu maqsadlarga erishish yo'lida qo'llaniladigan vositalar tizimi ilm-fanda «innovacion ta'lim texnologiyalari», yoki «ta'lim innovaciyalari» deb yuritiladi [1].

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda ta'lim innovაციyalari – bu shunchaki texnik vositalardan foydalanish emas, balki tarbiya jarayonidagi murakkab muammolarni (masalan, deviant xulq-atvor, yoki ijtimoiy moslasha olmaslikni) butunlay yangicha yondashuv asosida hal etishga qaratilgan, avvalgi (an'anaviy) usullarga nisbatan ancha yuqori va kafolatlangan natijani bera oladigan shakl, metod va vositalar majmuidir [3].

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat doirasidagi har qanday innovaciya — bu shunchaki tasodifiy yangilik emas, balki bolalar va o'smirlarning ijtimoiylashuvi, tarbiyasi va rivojlanishi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tizimli texnologiyalar majmuidir. Ilmiy tadqiqotlarda ta'limdagi innovacion jarayonning mikrostrukturasi tahlil qilinganda, uning o'ziga xos «hayot sikli» (yashovchanlik davri) konsepciyasi ajratib ko'rsatiladi. Unga ko'ra, har bir pedagogik yangilik vaqt o'qida quyidagi **3-ta** mantiqiy **bosqich**ni bosib o'tadi:

Birinchi bosqich — konseptuallashtirish (goyaning tug'ilishi). Bu muammoli (deviant yoki marginal) bolalar bilan ishlash jarayonida fundamental ilmiy kuzatishlar, yoki kreativ yondashuv (insayt) natijasida yangicha ijtimoiy-pedagogik yechimning kashf etilishidir.

Ikkinchi bosqich — modellashtirish (ixtiro). Bunda quruq goya aniq bir uslubiyatga, trening dasturiga, yoki ma'naviy-pedagogik mahsulotga (masalan, maxsus ijtimoiy loyihaga) aylantiriladi.

Uchinchi bosqich — amaliyotga tatbiq etish va adaptaciya. Yaratilgan innovacion model o'quvchilar muhitida sinovdan o'tkaziladi, kamchiliklari to'g'rilanadi va bu jarayon barqaror ijtimoiy-pedagogik samara (natija) olish bilan yakunlanadi [5].

Aynan mana shu uch bosqich muvaffaqiyatli yakunlangandan so'nggina, mazkur texnologiya ijtimoiy pedagoglarning kundalik amaliy quroliga aylanadi va ta'lim muassasasi muhitiga singib ketadi.

Ijtimoiy pedagogika fanining zamonaviy rivojlanish bosqichida shaxs ijtimoiylashuvi muammolarini hal etish uchun faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanib bo'lmaydi. Bugungi kun o'quvchilari (ayniqsa, **Z** va **Alpha avlod** vakillari) ma'lumotni qabul qilish va qayta ishlashda butunlay yangicha kognitiv xususiyatlarga ega. Ular uzundan-uzoq davom etadigan monologik ma'ruzalarni, nasihatbozlikni va passiv tinglovchi rolini qabul qila olmaydilar.

Shu sababli, ijtimoiy pedagogning arsenalida o'quvchini bevosita harakatga undaydigan, unda kuchli hissiy (emocional) kechinmalarni uyg'otadigan va

ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirishga imkon beradigan **innovacion texnologiyalar** bo'lishi shart. Innovacion texnologiya deganda, ta'lim-tarbiya jarayoniga eng so'nggi ilmiy yutuqlarni joriy etish orqali bolaning jamiyatga moslashuv ko'rsatkichlarini kafolatli ravishda oshiruvchi, oldindan rejalashtirilgan va tizimli harakatlar majmui tushuniladi.

### **METODLAR (METHODS):**

Ijtimoiylashuv jarayonida oqsoqlikka yo'l qo'ygan va xulq-atvorida deviantlik belgilari namoyon bo'layotgan o'smirlarni jamiyatga qaytarish (so'glomlashtirish) uchun an'anaviy pand-nasihat va ma'ruza shaklidagi metodlar etarli emas. Chunki xavf guruhidagi bolalar ko'pincha kattalarning tanbehlariga nisbatan psixologik himoya (qarshilik) mexanizmini ishga tushiradilar [6]. Shu sababli, ijtimoiy pedagog faoliyatida bolani bevosita jarayon ichiga tortadigan innovacion texnologiyalar va interaktiv treninglar talab etiladi. Mana shunday zamonaviy va o'ta samarali trening usullaridan biri — «**Forum-teatr**» (ijtimoiy teatr) texnologiyasidir.

«Forum-teatr» — bu ijtimoiy-pedagogik treningning shunday shakli, unda o'quvchilar o'zlarining real hayotlaridagi muammoli vaziyatlarni (maktabdagi bulling, ota-ona bilan ziddiyat, tengdoshlarning salbiy tasiri) sahna ko'rinishi sifatida o'ynab beradilar. Uning asosiy innovacion xususiyati shundaki, sahna ko'rinishi eng keskin nuqtaga (nizoga) yetganda to'xtatiladi. Shundan so'ng ijtimoiy pedagog (moderator) tomoshabin bo'lib turgan boshqa o'quvchilarga murojaat qilib, vaziyatni so'glomlashtirish uchun nima qilish kerakligini so'raydi. Har qanday o'quvchi sahnaga chiqib, aktyorlardan birining o'rnini egallashi va muammoni tinch yo'l bilan hal qilishning o'z variantini ko'rsatib berishi mumkin. Mazkur texnologiyaning ijtimoiy-pedagogik mo'jizasi shundaki, unda «to'g'ri», yoki «noto'g'ri» degan qa'tiy baho yo'q. An'anaviy maktab tizimida bola doimo xato qilishdan va «ikki» baho olishdan qo'rqadi. Biroq «Forum-teatr» maydonida o'quvchi turli xil ijtimoiy rollarni (ham jabrlanuvchi, ham tajovuzkor, ham kuzatuvchi rollarini) hech qanday qo'rqusiz sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Bu muhitda ijtimoiy pedagog hukm chiqaruvchi hakam emas, balki shunchaki jarayonni boshqaruvchi (fasilitator yoki Joker) vazifasini bajaradi. Jokerning vazifasi sahnadagi ziddiyatli vaziyatni tomoshabinlar bilan birgalikda tahlil qilish, ularni savollarga tutish va eng optimal (konfliktsiz) yechim topilguniga qadar sahnani qayta-qayta o'ynatishdan iboratdir. Bu jarayon o'quvchida kuchli

empatiyani, y'ani boshqa odamning dardini va poziciyasini tushunish qobiliyatini shakllantiradi.

**NATIJARLAR (RESULTS):** Ushbu trening metodining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati qo'yidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Zo'riqishni yumshatish: O'smir o'z ichidagi agressiya, yoki qo'rquvni real hayotda emas, xavfsiz trening sharoitida chiqarib yuboradi;
2. Alternativ xulq-atvorni shakllantirish: Bola muammodan qochishni, yoki mushtlashishni emas, balki muloqot orqali yechim topishni o'rganadi;
3. Refleksiya: O'z xatosini chetdan kuzatish orqali o'smirda ijtimoiy ma'suliyat hissi uygonadi.

Shuningdek, Forum-teatr treninglarini art-pedagogika (muammoni qogozga chizish, his-tuygularni ranglar orqali ifodalash) elementlari bilan uygunlikda olib borish o'smirlarning ijtimoiy moslashuvchanligini tezkor tiklashga xizmat qiladi [3].

Ijtimoiylashuv jarayonini so'g'omlashtirishda Forum-teatrdan tashqari, «Art-pedagogika» va «Ertakterapiya» (ertak bilan davolash) texnologiyalari ham yuqori samara bermoqda. Deviant xulq-atvorli, yoki oilaviy zo'ravonlikka uchragan bolalar ko'pincha o'zlarining ichki travmalarini so'z bilan ifodalab bera olmaydilar (aleksitimiya holati). Bunday vaziyatda ijtimoiy pedagog boladan o'z his-tuygularini qogozga chizishni (izoterapiya), yoki loydan yasashni so'raydi. Bola o'zidagi butun negativ energiyani (agressiyani) sa'nat orqali tashqariga chiqarib yuboradi (sublimaciya). Ertakterapiyada esa bolaga uning hayotiga o'xshash, lekin qahramonlari jonivorlar yoki afsonaviy shaxslar bo'lgan ertaklar o'qib beriladi. Bola o'zini bosh qahramon bilan taqqoslaydi va ertakning yaxshilik bilan tugashi uning ongida muammodan chiqish yo'li borligi haqidagi umid uchqunlarini paydo qiladi.

Tajriba-sinov ishlari 2025-2026 o'quv yili davomida pedagogic amaliyot jarayonida Nukus shahridagi 29-sonli umumta'lim maktabida o'tkazildi. Unga maktabning 8-9-sinflarida o'qiydigan, xulq-atvorida deviantlik belgilari kuzatilgan va ijtimoiylashuvida muammosi bor jami 40 nafar o'quvchi jalb etildi.

### **XULOSA (CONCLUSION):**

Shunday qilib, yuqoridagi barcha innovacion treninglar bir maqsadga — boladagi ichki ruhiy blokni buzish va uni jamiyat bilan sog'lom muloqotga tayyorlashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):**

1. Abdullaeva N., Mamurova F., Tojimurodov N. «Talimda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati»// Экономика и социум.// 2021. №4-1
2. Бозина И.Г., Касаткина Н.Э. «Факторы, влияющие на социализацию личности старших школьников в условиях образовательного учреждения» // Сибирский педагогический журнал. 2007, №6.
3. Буртонова И.Б. «Социально-педагогические стратегии профилактики девиантного поведения подростков в условиях общеобразовательной школы» // Вестник БГУ, 2015, №3.
4. Mamatqulov A. A. «O'quvchi yoshlar o'rtasida internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish»// Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). 2020. №6 (91).
5. Пардаев Б. У. «Компоненты и факторы социализации школьников» // Вестник науки и образования// 2020. №9-3 (87).
6. Пыльцина И. Ю. «Социально-педагогическая работа с подростками девиантного поведения на этапе возрастного кризиса» // Известия ВГПУ. 2007. №1.
7. Яковлева А.С. «Понятие социализации в гуманитарных отраслях знаний» // Молодой учёный. — 2022. — № 32 (427). — С. 93-95.